Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o'qituvchisi, B.M.Tuxliyevning "Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment"dan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Talabalar tomonidan ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalariga doir ilmiy nazariyalarni, asosiy tushunchalarini o'zlashtirish, tegishli kompetensiyalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalariga mos uslubiy yondashuvlar mazmunini ochib berish, ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalariga siyosiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, davlat boshqaruvida davlat xizamati va personal boshqaruv nazariyasi, amaliyotini qo'llash texnikasini o'zlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda faol shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvida xodimlardan samarali foydalanish ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Bir tomondan, davlatning iqtisodiy rivojlanishi va ilmiy mushohada qilishga o'rgatishdan iborat, davlat xizmati lavozimlarining davlat reestri hamda personal boshqaruv sohasini rivojlantirish xizmati va personal boshqaruv sohasida davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha bilim olish, kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish orqali kengaytirish. Boshqa personal boshqaruv tipologiyasini siyosiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, davlat boshqaruvida davlat xizamati va personal boshqaruv nazariyasi, amaliyotini qo'llash texnikasini o'zlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda faol shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish orqali demokratik jamiyatdagi o'rni va rolini o'rganish va targ'ib etish masalasi dolzarbdir. Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga davlat xizmati va personalni boshqarish tushunchasi nuqtai nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga "Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment" fani orqali erishish mumkin.

Shularni inobatga olib, "Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment" fani yuzasidan tayyorlangan fan majmuasi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri,
i.f.n., dotsent Sh.Sultonov

KADRLAR BO'LIMI
IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA□LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60420200- MIKIQ1405
2024 yil "10" 16

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

"DAVLAT BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY MENEJMENT"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	420000 – Huquq
Ta'lim yo'nalishi:	60420200 - Davlat va jamiyat boshqaruvi

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MIKIQ1405	2025-2026	IV	5
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	MOLIYAVIY IQTISODIYOT	66	84	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** ***Fanni o’qishdan maqsad*** – talabalarini davlat boshqarishning mohiyati; davlat va investitsiyalarni boshqarishning o'zaro bog'liqlig; davlat tadqiqot usullari va bosqichlari; davlat boshqarishning zamonaviy metodologiyalari; rejalashtirish jarayonining asosiy tartib-qoidalari; davlat boshqaruvi tadqiqotlarning joriy etilishi va samarasi; tashkilotda boshqarish tizimini va ilmiy- falsafiy mushohada qilishni o‘rgatishdan iborat. ***Fanning vazifasi*** – “Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment” Umumdavlat boshqaruvi tashkilotlarining asosiy vazifalari: FTTning asosiy yo`nalishlarini belgilash, tabiiy muxitni muxofaza qilish, pul va rkedit tizimiga raxbarlik qilish, soliq va daromadlarni belgilash, xisob va statistikani tashkil etish, narx, tariflar belgilash, xalq xo`jaligi tarmoqlariga raxbarlik qilish kiradi. `zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining doimiy ish yurituvchi tashkilotlari faoliyati tarmoqlararo ilmiy-texnikaviy ishlarga raxbarlik qilish, fan texnika soxasida tanlov, ko‘ngilli asosda ishlarni tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Davlat boshqaruvini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.** Davlat boshqaruvining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishda uning tarkibiy qismlari bo‘lgan “davlat” va “boshqaruv” tushunchalarining mohiyatini to‘g‘ri anglash juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, shu davrga qadar “boshqaruv” tushunchasiga ko‘plab sharhlar berilgan bo‘lib, natijada ushbu tushuncha bugunda turli xususiyatlar, munosabatlar va jarayonlarning cheksiz xilma-xilligini asoslamoqda. Zero, davlat boshqaruvi tizimi - jamiyat ehtiyojlari hamda milliy manfaatlar evolyusiyasini mos ravishda o‘zida aks ettirishi qolaversa, davlat boshqaruvi jarayolarini tashkil qilish tamoyillarining ilmiy-metodologik asoslanganligini bilishimiz uchun ushbu tizimdagi siyosiy tadqiqot usullarini chuqur o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.
M2	**Davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati.** Har qanday zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayon, xususan, davlat boshqaruvi kabi tizim hodisalarini tushunishga intilish bizni bu masalaning tabiati va mohiyatiga murojaat qilishga undaydi. Jamiyatda yuz beradigan ko‘plab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aynan boshqaruv masalasi bilan uzviy bog‘liqlikda vujudga keladi. Aslida lotincha “administratio” – “xizmat” va “boshqaruv” degan atama rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir) bildiradi. Boshqaruv bizni qurshab turgan dunyoga xos universal va zaruriy xususiyat hisoblanadi. Boshqaruv-zaruratdir, boshqaruvsiz kishilar faoliyatini maqsad sari yo‘naltirish, tegishli sohalarni rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Boshqaruv bo‘lmagan joyda tartibsizlik, boshboshdoqlik yuzaga keladi.
M3	**Jamiyat barqarorligini ta’minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimini shakllantirishning ahamiyati.** Davlat boshqaruvi tizimi evolyutsion rivojining o‘zgarmas o‘zagi, ya’ni harakatdagi qonunlarni bajarish faoliyatini, davlat boshqaruvi organlarining mavjudligi va takomillashuvini hamda boshqaruv ob’ektining muntazam o‘rganilib borilishini o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosidagi kamchiliklar, tadbirkorlik va qulay investisiyaviy muhitni rivojlantirish borasida duch kelinayotgan muammolarni bartaraf etishda, ma’muriy boshqaruv sohasida tizimli islohot o‘tkazilishini hamda uning samarali mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish sharoitida kuchli hokimiyat o‘zining ijobiy xususiyatlari va sifatlarini davlat boshqaruvi tuzilmalarining ko‘psonli va ko‘p bo‘g‘inli tizimini shakllantirish orqali emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi apparatining harakatchanligi va moslashuvchanligini oshirish orqali namoyon qiladi.
M4	**Siyosiy hokimiyat legitimligi va legalligi munosabatlarining konseptual asoslari.** Shuni qayd etish kerakki, hokimiyatga oid munosabatlar ob’ektiv ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotga xos voqelik, xodisa va jarayondir. Hokimiyat jamoa sifatida hayot kechirishning muhim talabi bo‘lib, busiz davlat hamda jamiyatni tasavvur qilish qiyin. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyatsiz inson sivilizatsiyasi mavjud bo‘lolmaydi. Kishilar jamoasi – jamiyatga uyushgan yerda hokimiyat ham bo‘ladi. Har qanday jamiyatda insonlar alohida emas, balki birgalikda turmush kechirishgan va bunda o‘zaro ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy munosabat hayotning o‘ziga xos talabiga aylangan. Bundan ko‘rinadiki, hokimiyat orqali siyosiy instiut, jamiyat va davlat tushunchalari mohiyatini yanada aniqroq ochib berish mumkin. Hokimiyat fenomeni siyosat va huquq sohasi vakillarining alohida e’tibor markazida bo‘lgan.
M5	**Davlat hokimiyatining institutsional tuzilishi va legitimligini shakllanish dinamikasi.** Bizningcha, “siyosiy institut” - davlat

	hokimiyatini tashkil qilishning o'ziga xos shakli va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning barqaror vositasidir. Bu orqali institutlar siyosiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyat siyosiy tashkilotining barqaror, uzoq muddat ishlashini ta'minlaydi. Bu borada davlat hamda jamiyatning funksionallashuvi va harakatlanishida birinchi darajali va deyarli mutlaq suverenitetga ega alohida bir tashkilot, jamiyat siyosiy tizimining bosh tarkibiy qismi sifatida hokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning hamma sohasiga ta'sir qiladi. U vakolatni xalqdan oladi va uni o'zining maxsus tuzilmalari – davlat organlari orqali amalga oshiradi.
M6	**Xalq hokimiyatchiligini shakllantirish-jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlashning metodologik va strategik asosi.** Hozirgacha erishilgan va tan olingan barqarorlik - demokratik izlanishlar cheki emas, oraliq hosilasi, xolos. Shu sababli haqiqiy demokratiyani ta'minlash uchun tom ma'nodagi xalq hokimiyatchiligini qaror toptirishga qodir, davlat institutlarining inson manfaatlari uchun chinakamiga xizmat qilishini ta'minlay oladigan samarali mexanizmni shakllantirish hozirga qadar muhim vazifa bo'lib qolayotganligi, shubhasiz. Hozirgi vaqtda demokratik siyosiy tizimning eng muhim sub'ekti bo'lmish davlat uning boshqaruv tizimini isloh qilishda yangi vazifalarni joriy etish avvalambor, siyosiy institutlarning va nodavlat uyushmalarning xilma-xilligi hamda ularning rolini mustahkamlanishi, aholining siyosiy faolligini oshirish asosida jamiyat hayotini yanada demokratiyalash islohotlarning muhim asosi bo'lib bormoqda.
M7	**Siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish xususiyatlari va tendensiyalari: xorijiy tajriba.** Davlat va uning siyosiy institutlarini legitimlik manbai fuqarolarning hokimiyat organlariga nisbatan o'z majburiyatlarini bajarish va ularni qo'llab-quvvatlash huquqi asosida shakllanadi. Ushbu turdagi legitimlik davlat hokimiyati organlarining fuqarolarda adolat va siyosiy institutlar optimalligi haqidagi siyosiy ong hamda madaniyatni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga bog'liq. Shu bois, har qanday siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirishda institutsional va kommunikatsiya resurslaridan oqilona foydalanishi katta ahamiyatga ega. Siyosiy hokimiyatning legitimligi muammosi har doim jahon siyosiy tarixidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Bunga erishish vositalari juda xilma-xildir.
M8	**O'zbekistonda siyosiy hokimiyatni legitimlashtirishning milliy domenantlari.** Barqaror va mustahkam demokratiya nafaqat institutsional asosga ega balki, qonuniy tartib-qoidalar bilan bir qatorda, u ma'lum tarkibiy poydevorga, uni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga va jamiyatda muhim ehtiyojga aylanib borayotgan demokratik fuqarolik normalari va qadriyatlariga - maxsus "ijtimoiy kapital" va siyosiy legitimlikka asoslanishi kerak. Legitimlikning siyosiy xarakteri shu bilan belgilanadiki - bu fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, siyosiy manfaatdorlik va davlat islohotlariga xayrixohlik, jamiyat manfaati uchun g'amxo'rlik, bag'rikenglik va murosaga tayyorlik, shuningdek, siyosiy

	hokimiyat va siyosiy institutlarga bo'lgan ishonchdir.
M9	**Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirish mexanizmlari va texnologiyalari.** Siyosiy hokimiyatni legitimlashtirishning zamonaviy texnologiyalari asosan jamiyat fuqarolarining davlat islohotlariga nisbatan siyosiy madaniyatning ta'sir darajasi va shaxsning siyosatdagi o'rni bilan belgilanadi. Bu esa, har qanday jamiyatda siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish texnologiyalarining hozirgi ta'siri ko'proq manipulyatsiya ko'rinishiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi. Siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish jarayoni siyosiy voqelikda sodir bo'layotgan siyosiy munosabatlar va hodisalarni tushuntirish hamda qiymat darajasida oqlash yo'llarini me'yoriy va kognitiv talqin qilish orqali ifodalanadi.
M10	**Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirishda jamoatchilik konsensusi.** Jamiyat hayotining barcha sohalarida insonlarning, fuqarolar birlashmalarining, turli tashkilotlarning o'zaro hamkorligisiz biror bir ijobiy natijaga erishish juda qiyin. Bunday hamkorlikka bo'lgan ehtiyojni kuchayishiga, ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonlari katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'zaro samarali hamkorlikdan fuqarolik jamiyati institutlari ham, davlat ham birdek manfaatdordir. Davlat organlari o'zaro hamkorlik orqali jamiyat hayotidagi dolzarb masalalar yechimida qulaylikka ega bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari esa, o'z dasturiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishda, o'z imidji va siyosiy maydondagi nufuzini yuksaltirishga erishadi. Insonni birgalikda yashashga, hamjihatlikda mehnat qilishga va umuman, hayot kechirishga undagan bu tabiiy instinkt insoniyat paydo 98 bo'lgan ilk davrlarda ular uchun tabiiy ofatlardan qutulish, yirtqich hayvonlardan himoyalanish uchun xizmat qilgan bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyotning bugungi davriga kelib, barcha sohalarda unga murojaat qilinadi va u asosidagina insoniyat ayni bugungidek farovon hayot darajasiga erishib kelmoqda.
M11	**Saylov-siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish vositasi sifatida.** Ma'lumki, insonlarning o'z tabiiy ehtiyojlari ta'minlash va manfaatlarini to'laqonli ravishda qondirish maqsadida tashkil etgan birlashmasiga jamiyat deyiladi. Jamiyat bo'lib yashash odamlarga ko'plab qulayliklar keltiradi. Zero, jamiyatda odamlar birlashib, o'z hayotiy muammolarini hal qilishadi. Jamiyat qanchalik jips bo'lsa, shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Tarqoq bo'lsa - muammolar girdobiga duch keladi va muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Jamiyatni haqiqiy jamiyat qiluvchi omillardan biri - hayotiy qarorlarni ko'pchilik bo'lib, ya'ni ovoz berish orqali qabul qilishdir. Buning yaxshi tarafi shundaki, qarorlar qabul qilishda yakka shaxslar yoxud jamiyatning ba'zi guruhlari emas, balki hamma bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Ko'pchilikning hoxish irodasi ya'ni legitimligi amalga oshadi. Bu narsani ro'yobga chiqarish vositalaridan biri – saylov jarayonidir.
M12	**Siyosiy hokimiyat legitimligining samarali davlat xizmatlari ko'rsatish darajasiga ta'siri.** Zamonaviy siyosiy hokimiyat bugungi kunda jamiyatni birlashtirishga, xalqning o'ziga bo'lgan yuksak ishonchiga, e'lon qilingan strategik maqsadi va ularga erishish vositalariga muhtoj. Bunday sharoitda

	siyosiy hokimiyatning legitimligi va jamiyatning davlat xizmatiga bo'lgan munosabatini baholash, samaradorligi, natijadorligi va tejamkorligini oshirishga qaratilgan amaliy islohotlarni joriy etish dolzarb bo'lib bormoqda. Ma'lumki, xizmat munosabatlari davlat-xizmat munosabatlariga yoki jamoat birlashmalarida va boshqa nodavlat, xususiy, tijorat tashkilotlarida amalga oshiriladigan xizmat munosabatlariga bo'linishi mumkin. Xizmatchilarning qanday lavozim egallashi va qaysi tashkilotda o'z majburiyat va vazifalarini bajarishiga qarab, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin
M13	**Zamonaviy siyosiy tizim sharoitida siyosiy hokimiyatni legitimlash mexanizmlari.** Zamonaviy siyosiy o'zgarishlar haqida gapirganda, bu o'zgarishlar turlicha sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'lib, bir siyosiy tizim doirasida turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Siyosiy taraqqiyotni butun bir siyosiy tizim va uning alohida tarkibiy qismlarining sifat holatini bosqichma - bosqich o'zgarishi tarzida tavsiflashimiz mumkin. Boshqacha aytganda, siyosiy taraqqiyot sifat o'zgarishlariga asoslanadi. Siyosiy rivojlanish ko'lami asosan evolyutsion davr taqozosining ko'lamidir. Zamonaviy globalizatsiya jarayonida jamiyatning sanoat tashkilotidan axborot-global tashkilotga aylanib borayotganligi bir qator qarama qarshiliklarni vujudga keltirmoqda.
M14	**Davlat va jamiyatning demokratik siyosiy muloqotida legitimlik salohiyatini oshirish yo'nalishlari**Boshqaruv tuzilmasi va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uygunlashganlik darajasi, avvalambor, oshkoralik holati, mustaqil ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, aholining axborot 141 manbalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishi muammolarini tahlil qilish va baholash jarayonida namoyon bo'ladi. Jamiyatni demokratlashtirish, uning plyuralizatsiyalashuvi, turli partiyalar va harakatlarning, mafkura va oqimlarning, turli dunyoqarashlar va siyosiy fikrlarning rivojlanishi bilan birga kechadi. Davlat boshqaruvi yangi tamoyillarining rivoji ko'p jihatdan ushbu jarayonlarga asoslanadiki, aynan shu jarayonlar uning yangi sifatlarda shakllanishi va mustahkamlanishi uchun zamin tayyorlaydilar
M15	**Yangi O'zbekiston siyosiy tizimining rivojida davlat hokimiyatini legitimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.** Ma'lumki, har qanday darajadagi islohot mavjud tartib, shart-sharoitlar, vaziyat, tarkib topgan muayyan siyosiy tizim muvozanatning o'zgarishiga olib keladi. Butun jamiyatning isloh etilishi, ya'ni uning eski-noto'g'ri asosga qurilgan, istiqbolsiz tizimdan butunlay yangi-ijtimoiy bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik va huquqiy jamiyatga o'tishi esa, juda murakkab jarayon hisoblanadi 1 . Shunga ko'ra, jamiyatda fuqarolar tomonidan mazkur islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishi, ularda faol ishtirok etish uchun ularning ongu tafakkuri ham o'zgarishi lozim. Bu esa, demokratik islohot jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilishini taqozo etadi. Qolaversa, taraqqiyotning yuqori bosqichlariga erishish uchun islohotlarning ma'lum quyi darajasidan navbatdagi yuqori, murakkab darajasi uchun maxsus shart-sharoitlar va qulay zaminni

	tayyorlashni taqazo etadi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy mashg'ulotlar (A) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Davlat boshqaruvini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari
A2	Davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati
A3	Jamiyat barqarorligini ta'minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimini shakllantirishning ahamiyati
A4	Siyosiy hokimiyat legitimligi va legalligi munosabatlarining konseptual asoslari.
A5	Davlat hokimiyatining institutsional tuzilishi va legitimligini shakllanish dinamikasi.
A6	Xalq hokimiyatchiligini shakllantirish-jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlashning metodologik va strategik asosi.
A7	Siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish xususiyatlari va tendensiyalari: xorijiy tajriba.
A8	O'zbekistonda siyosiy hokimiyatni legitimlashtirishning milliy domenantlari.
A9	Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirish mexanizmlari va texnologiyalari.
A10	Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirishda jamoatchilik konsensusi.
A11	Saylov-siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish vositasi sifatida
A12	Siyosiy hokimiyat legitimligining samarali davlat xizmatlari ko'rsatish darajasiga ta'siri.
A13	Zamonaviy siyosiy tizim sharoitida siyosiy hokimiyatni legitimlash mexanizmlari.
A14	Davlat va jamiyatning demokratik siyosiy muloqotida legitimlik salohiyatini oshirish yo'nalishlari.
A15	Yangi O'zbekiston siyosiy tizimining rivojida davlat hokimiyatini legitimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Davlat boshqaruvini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari
2.	Davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati
3.	Jamiyat barqarorligini ta'minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimini shakllantirishning ahamiyati
4.	Siyosiy hokimiyat legitimligi va legalligi munosabatlarining konseptual asoslari.
5.	Davlat hokimiyatining institutsional tuzilishi va legitimligini shakllanish dinamikasi.
6.	Xalq hokimiyatchiligini shakllantirish-jamiyat barqaror taraqqiyotini

	ta'minlashning metodologik va strategik asosi.
7.	Siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish xususiyatlari va tendensiyalari: xorijiy tajriba...
8.	O'zbekistonda siyosiy hokimiyatni legitimlashtirishning milliy domenantlari.
9.	Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirish mexanizmlari va texnologiyalari
10.	Siyosiy hokimiyat legitimligini shakllantirishda jamoatchilik konsensusi.
11.	Saylov-siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish vositasi sifatida
12.	Siyosiy hokimiyat legitimligining samarali davlat xizmatlari ko'rsatish darajasiga ta'siri.
13.	Zamonaviy siyosiy tizim sharoitida siyosiy hokimiyatni legitimlash mexanizmlari.
14.	Davlat va jamiyatning demokratik siyosiy muloqotida legitimlik salohiyatini oshirish yo'nalishlari.
15.	Yangi O'zbekiston siyosiy tizimining rivojida davlat hokimiyatini legitimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

"Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment" fani bo'yicha mustaqil ta□lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • menejmentning nazariy va amaliy asoslarini; rahbarlar va xodimlar bilan muloqat olib borish; shartnomalar tuzish asoslarini; menejment qonun va tamoyillarini boshqaruv texnikasi va uning turlarini, marketing mohiyatini, ijtimoiy dastur va uning menejmentdagi o'rnini, bilishi; • menejment vazifalari va funksiyalarini bajarish; turli mulkchilik shaklida korxona va tashkilotlarda faoliyat olib borish,tadbirkorlikning xorijiy menejment tajribasi, menejmentda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish; menejment personaliga xos xususiyat, boshqaruv samaradorligini oshirish loyihalarini iqtisodiy asoslash, korxonaning moliyaviy resurslarini huquqiy boshqarish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi; • boshqaruv tashkiliy strukturasiga; menejment etika va madaniyatiga; rahbarlik uslublariga, boshqaruvda qaror qabul qilish, biznes reja tuzilishi, xududiy boshqaruv, Mahalliy xokimiyatlar va ularning vazifalari, tizim, ishlab chiqarish vaziyatlari, menejment usullari to'g'risida, boshqaruv samaradorligini oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	**VI. Ta□lim texnologiyalari va metodlari:** • ma□ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Xojiyev Erkin davlat va jamiyat boshqaruvining xuquqiy asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma.- Toshkent yangi kitob 2017, -256 b.
2. Jamiyat qurulishi va ijtimoiy boshqaruv. N.Komilov va boshqalar. –T.: 2007-yil, -508 bet.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://senat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti
3. https://parliament.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti
4. https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
5. https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
6. https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti

7. https://gov.uz/en/miit – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti 8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti. 9. https://soliq.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining rasmiy veb-sayti 10. https://www.bojxona.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti 11. https://www.lex.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.	
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **B.M.Tuxliyev.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi o’qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** S.B.Sharipov –Samarqand davlat universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.n. (ichki) Sh.Sultonov – SamISI, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent. (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o‘qituvchisi, B.M.Tuxliyevning “Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment”dan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturida “Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment” fani o‘rganish uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko’ nikmalar, eksperimental tadqiqotlar, davlat boshqaruvida zamonaviy ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash va ilmiy- falsafiy mushohada qilishga moslashtiradi va unga ta’lim berish bo‘yicha ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Talabalar ushbu fanni o‘rganish davomida davlat xizmatining maqsadi va vazifalari, davlat xizmatining o‘ziga xos xususiyatlari va turlari, davlat xizmati lavozimlarining davlat reestri, davlat xizmatchilarini tayyorlashning MPA-Master of Public Administration va Master of Public Policy standart dasturlari, ularning majburiyatlari va kafolatlari, elektron davlat xizmati, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish texnologiyalari, KPI ning asosiy ko‘rsatkichlari va uni hisoblash tartibi, kadrlar zahirasini shakllantirish, O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi, personalni rejalashtirish vazifalari, ishga qo‘yiladigan talablar (JobProfile), Xersey va Blansharning yetakchilik modeli hamda personalni boshqarishda autsorsing va autstaffing haqida tushunchalarga ega bo‘ladi.

Shuningdek, “Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment” fan dasturining asosiy parametrlari, fanning maqsadi va vazifalari keltirilgan. Shuningdek, asosiy nazariy qismida fan tarkibiga kiritilgan ma’ruza mavzular, seminar mashg‘ulot mavzular, mustaqil ta’lim mavzulari keltirilgan. Xulosa qilib aytganda, fanni o‘zlashtirish natijasida talaba fanga oid bo‘lgan tasavvurga ega bo‘lishlari, olingan bilimlarini amaliyotda foydalana olishi va ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga olib keladi. Ushbu dasturda fan uchun kerakli bo‘lgan dolzarb mavzular o‘z aksini topgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. **S.B.Sharipov**

_____ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo‘limi boshlig‘i